

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 06 | pp. 38-42 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA ROLI



Xurramov Azizbek

IAAF kafedresi assistenti,

International School of Finance and Technology,

Tashkent, Uzbekistan

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotning mazmuni nazariy tomondan yoritilgan bo'lib, iqtisodiy tarmoq(soha)larda uning o'rni, rivojlangan mamlakatlar tajribasi va yutuqlari, respublikamizda uni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Mazkur maqolani o'rganishda "Adabiyotlar sharhi" metodidan foydalanildi.

Kalit so'zlar: E-hukumat, elektron profil, elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot, taraqqiyot iqtisodiyoti, axborot- kommunikatsion texnologiyalari.

Abstract: In this article, the content of the digital economy is theoretically covered, its role in the economic sectors (sectors), experience and achievements of developed countries, opportunities for its development in the country. The method of literature review was used in the study of this article.

Key words: E-government, electronic profile, electronic commerce and digital economy, development economy, information and communication technologies.

Kirish. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarning tez suratda rivojlanishi hamda uning iqtisodiyotini jamiyatga keng ko'llamda tadbiq etilishi orqali iqtisodiy barqarorlikka erishmoqda. Ushbu texnologiyalarni barcha tarmoq(soha)larga joriy etish va ulardan samarali foydalanish mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlar singari rivojlanayotgan mamlakatlarda ham raqamli iqtisodiyotning rivojlanib borilishi, ularning rivojlantirishning ustuvorligiga asoslangan milliy iqtisodiyotni barqarorlashtirishga erishadi. Mamlakatimizda ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) ni modernizatsiyalash hamda tizimni liberallashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish tarmoqda iqtisodiy barqarorlik ta'minlaydi.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlarning jadal suratda rivojlanib borilishi, barcha tarmoq(soha)larga raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, qaysidir jihatdan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) da mehnat sarfining kamayishi hisobiga ish unumining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan islohatlarda ham barcha tarmoq(soha)larda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tizimini bosqichma-bosqich raqamli iqtisodiyotga o'tkazish orqali inson omili ta'sirini kamayirishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada, "Raqamli iqtisodiyot" atamasi

"An'anaviy iqtisodiyot" atamasi bilan qanday jihatlari, nimasi bilan farq qilishi borasida iqtisodchi olimlar va ilmiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarini, izlanishlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

"Raqamli iqtisodiyot" - bu raqamli texnologiyalarning ishlab chiqarish va iste'mol shakllariga ta'sirini qamrab oladigan atama [5] bo'lib, tovarlar va xizmatlar qanday bozorga chiqarilishi, savdosi va to'lanish tizmini o'z ichiga oladi. Ushbu atama 90-yillardan boshlab paydo bo'lib, dastlab asosiy e'tibor "Internet"ning iqtisodiyotga ta'siriga qaralib raqamli yo'naltirilgan firmalarning yangi turlari paydo bo'lishi va yangi texnologiyalarni ishlab chiqarilishi nazarda tutilgan. Bugungi kunga kelib ushbu atama ko'plab yangi texnologiyalar va ularni qo'llashni qamrab olmoqda. Ya'ni, sun'iy intellekt, narsalar interneti, kengaytirilgan va virtual haqiqat, bulutli hisoblash, blockchain, robototexnika va avtonom transport vositalarini o'z ichiga olmoqda. Sh o'rinda, milliy iqtisodiyotimizga raqamli iqtisodiyotni joriy etilishi boshqa tarmoq(soha)lar singari agrar sektorning rivojlanishi, raqobatbardoshligi va samaradorligini amalga oshirishda muhim strategik vazifalarni bajaradi. "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasining talqini raqamli texnologiyalarning rivojlanish darajasi, ularning zamonaviy jamiyatdagi o'rnini va ahamiyatini hisobga olgan holda Raqamli iqtisodiyot endi bozorlarni, biznes modellarini va kundalik operatsiyalarni olib keladigan texnologik o'zgarishlar [6]dan foydalanadigan iqtisodiyotning barcha qismlarini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, u an'anaviy texnologiyalar, media va telekommunikatsiyalardan tortib to yangi raqamli tarmoqlargacha bo'lgan barcha faoliyat turlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Mazkur raqamli iqtisodiyot [8] dunyoning har bir sektorida raqamli texnologiyalarni qabul qilish va qo'llash o'sib borishi bilan odatiy iqtisodiyotga aylanadi.



Manba¹: "Илм, ма'рифат ва рақамли иқтисодiyotni ривожлантириш йили" Давлат дастурининг Иқтисодiyotni ривожлантиришнинг устувор yo'nalishlari

¹ <https://review.uz/uz/post/ilm-marifat-va-raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirish-yili-davlat-dasturining-iqtisodiyotni-rivojlantirishning-ustuvor-yonalishlari>


Material va metod. Mazkur ishni o'rganishda xorijiy adabiyotlar, ilmiy ishlar va maqolalar, iqtisodchi olimlarning asarlarini o'rganish bilan bir qatorda, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari Iskandarov I., Sharifxo'jayev M., G'ulomov S., Tursunxo'jayev M., Qodirov A., Zaynutdinov Sh., Abdurahmonov K., Abdullayev Yo, Murtazayev O. asarlari va ilmiy maqolalari o'rganildi. Ilmiy maqolani yozishda "Adabiyotlar sharhi" usulidan foydalanilgan holda iqtisodchi olimlarning asarlari va ilmiy maqolalarini sharhlab o'tdik.

Bilimlarga asoslangan iqtisodiyotga bevosita taalluqli bo'lmagan ayrim nashrlar intellektual kapital va bilimlar menejmenti nazariyasining u yoki bu jihatlari ishlab chiqmoqda[9]. Zamonaviy, intellektual iqtisodiyot sari rivojlanish, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, ko'plab omillarga bog'liq va ularning ekonometrik tahlili raqamli iqtisodiyotni oqilona boshqarish hamda tartibga solish imkonini beradi. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanish nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqishga mamlakatimiz olimlari orasida Sharifxo'jayev M., G'ulomov S., Abdullayev Yo. va boshqalar iqtisodiyotni boshqarish nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi olimlari BMT doirasida O'zbekistonda bilimlar iqtisodiyotini barpo etish ahvoli va darajasini ilmiy jihatdan baholashga harakat qilishdi. G'ulomov S., Begalov B., Shodiyev T., Abdug'afforov A., Alimov R., Ataniyazov B., Mahmudov N., Xolmo'minov Sh., Nabiyev X., Aripov A.N., Iminov O.K., Muxiddinov X.A. va boshqalar tomonidan iqtisodiy jarayonlarni AKT texnologiyalari va ekonometrik modellashtrishning uslubiy jihatlari tadqiq etilgan[3], [11]. Mamlakatimizda ham iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda elektron hukumat, elektron profil, elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot muhim ahamiyat kasb, raqamli iqtisodiyotning hozirgi rivojlanish darajasini tahlil qilib, mamlakatda raqamli iqtisodiyotni, jumladan, zamonaviy O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun muhim ilmiy-resurs salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlari [10] ko'rib chiqilib, agrar sektorga tadbiiq etilishi iqtisodiy rivojlanishga erishadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanish darajasi oziq-ovqat xavfsizligi, jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga bog'liq bo'lib, agrar sektor ham boshqa tarmoqlar kabi o'zgarishlarga duch kelmoqda. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy tendensiyalaridan biri raqamli iqtisodiyotning faol rivojlanishidir. Mamlakatlarning milliy iqtisodiyoti jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan o'zgarishlarga ham moslashib, ba'zan rivojlanishning oldingi darajasiga qarab muvofiqlashib boradi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanish darajasi qishloq xo'jaligiga ham asta-sekin ta'sir etib, yangi yuqori texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda sun'iy intellekt imkoniyatlarini kengaytirish va boshqa jarayonlarda namoyon bo'ladi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalari, kompyuterlashtirish, Internet, mobil aloqa va boshqa atributlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda innovatsiyalarni faol amalga oshira oladigan xo'jalik yuritishning samarali ajralmas qismi hisoblanadi. Dunyoning yuksak rivojlangan mamlakatlari qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish faoliyati (xizmat ko'rsatish) ni axborot bilan ta'minlovchi raqamli texnologiyalardan foydalanishi mehnat unumining oshishi bilan bir qatorda mahsulot yoki xizmat sifatining oshishida asosiy o'rin tutadi[4].

"Raqamli qishloq xo'jalik iqtisodiyoti" kelajakda qishloq xo'jaligini dunyo aholisining ehtiyojlarini qondirishni ta'minlashga yordam beradigan yangi o'zgarish

bo'lib, agrar soha zanjirining har bir qismini o'zgartiradi. Qiymat zanjirlari eng aniq darajadagi nazorat qilinadi va muvofiqlashtiriladi, shu bilan birga turli xil dalalar, ekinlar va hayvonlar o'zlarining eng maqbul retseptlariga muvofiq boshqarilishi mumkin. Raqamli qishloq xo'jaligi yuqori mahsuldor, oldindan kutadigan va iqlim o'zgarishi natijasida yuzaga kelgan o'zgarishlarga moslashadigan tizimlarni yaratadi. Bu, o'z navbatida, oziq-ovqat xavfsizligi, rentabellik va barqarorlikni oshirishga olib keladi. Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida raqamli qishloq xo'jaligi qishloq xo'jaligining samaradorligi, iqtisodiy samaradorligi va bozor imkoniyatlari, ijtimoiy va madaniy imtiyozlar orqali iqtisodiy foyda keltirishi mumkin.



Manba²: Infografika: O'zbekiston iqtisodiyotining 2023-yil yanvar-sentyabr oylaridagi rivojlanishi

O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish Konsepsiyasi va Raqamli O'zbekiston - 2030 strategiyasining Konsepsiyasi umum xalq muhokamasiga taqdim etildi. Unda ko'zlangan maqsad sifatli va qimmat bo'lmagan internet va mobil aloqasini joriy etish, shahar va qishloq o'rtasidagi raqamli tafovutni kamaytirish, elektron yozuvlar ustuvorligi va korrupsiyaga qarshi kurashishni kuchaytirishdan iboratdir. Jamiyatning qancha ko'p a'zosi yangi raqamli, yuqori texnologik mahsulotlarni egallasa, ularning xaridorgirligi va qiymati shuncha ortadi, ya'ni iste'mol ko'lamining oshadi. Natijada iqtisodiy rivojlanish salohiyati yanada ortadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, raqamli iqtisodiyotni qurilish, energetika, qishloq va suv xo'jaligi, transport, geologiya, geologiya, kadastr, sog'liqni saqlash, ta'lim va arxiv ishlariga joriy etish ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi [1].

² <https://review.uz/en/post/infografika-razvitie-ekonomiki-uzbekistana-v-yanvare-sentyabre-2023-g>

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot agrar sektorga bosqichma-bosqich o'tib borilishi, qishloq hududlarida aholining ishlab chiqarishda qo'l mehnati sarfining kamayishi hisobiga mehnat unumdorligi va mahsulot sifatining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, mehnatga layoqatli aholini qishloq xo'jaligiga bog'liq bo'lmagan faoliyat turlariga yo'naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Rakhimov M.Yu. and others Analysis of financial status of economic subjects . Textbook . - T.: Economics 2020.
2. Khasanov BA and head q alar Financial ta h lil . Textbook . - T.: I q tisodiyot , 2019.
3. Tojiboeva Sh.A. I q tsodiyot subjects financial h ta h lili . Study guide . - T.: Iqtisodiyot , 2020.
4. Shoalimov AH, Tajiboeva Sh.A. I q is temporary ta h lil theory . Textbook . - T: Iqtisodiyot , 2019. -214 p.
5. Uralovich, K. S., Toshmamatovich, T. U., Kubayevich, K. F., Sapaev, I. B., Saylaubaevna, S. S., Beknazarova, Z. F., & Khurramov, A. (2023). A primary factor in sustainable development and environmental sustainability is environmental education. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 21(4), 965-975.
6. Khudoynazarovich, K. S. (2021). Economic issues of ensuring economic efficiency in agricultural production and the use of innovative agricultural technologies. *SAARJ Journal on Banking & Insurance Research*, 10(2), 16-22.
7. R. Udayakumar et al., "An Integrated Deep Learning and Edge Computing Framework for Intelligent Energy Management in IoT-Based Smart Cities," 2023 International Conference for Technological Engineering and its Applications in Sustainable Development (ICTEASD) 2023, pp. 32-38, doi: 10.1109/ICTEASD57136.2023.10585232.
8. Khurramov, A., & GANIEV, I. M. (2021). The Economic Effectiveness of Using Effective Risk Management Techniques in Project Management. *DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR*, 13-18.
9. Chandramowleeswaran, G., Alzubaidi, L. H., Liz, A. S., Khare, N., Khurramov, A., & Baswaraju, S. (2023, August). Design of financing strategy model of financial management based on data mining technology. In *2023 Second International Conference On Smart Technologies For Smart Nation (SmartTechCon)* (pp. 1179-1183). IEEE.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

